

ZAMONAVIY O‘ZBEK LEKSIKOGRAFIYASI: “O‘ZBEK TILINING IZOHLI LUG‘ATI” VA DAVR IN‘IKOSI

Andaniyazova Dilrabo Ruziqulovna,

*O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
yetakchi ilmiy xodimi, filologiya fanlari doktori, dotsent,
dilraboandaniyazova293@gmail.com*

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy o‘zbek leksikografiyasi yutuqlari, xususan, lotin yozuvida nashr qilingan olti jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” tarkibidagi semantik yangilanishlar, neologizmlar, eskirgan so‘zlar, terminelementlar, dialektal birliklarning o‘ziga xos jihatlari yoritildi. Shuningdek, lug‘at maqolalarida davrga xos ijtimoiy-madaniy holatlarning aks etish mexanizmlari lingvistik tahlillar asosida izohlandi.

Kalit so‘zlar: leksikografiya, izohli lug‘at, semantik evolyutsiya, neologizm, arxaizm, terminologiya, dialektizm, adabiy me‘yor, leksik birlik.

Аннотация. В данной статье освещаются достижения современной узбекской лексикографии, в частности, семантические обновления, неологизмы, устаревшие слова, терминологические элементы и диалектные единицы, содержащиеся в шеститомном «Толковом словаре узбекского языка», изданном на латинском алфавите. Также на основе лингвистического анализа объясняются механизмы отражения социокультурных условий эпохи в словарных статьях.

Ключевые слова: лексикография, толковый словарь, семантическая эволюция, неологизм, архаизм, терминология, диалектизм, литературная норма, лексическая единица.

Abstract. This article highlights the achievements of modern Uzbek lexicography, specifically semantic updates, neologisms, obsolete words, terminological elements, and dialectal units contained in the six-volume "Explanatory Dictionary of the Uzbek Language," published in the Latin alphabet. Using linguistic analysis, it also explains how the dictionary entries reflect the sociocultural conditions of the era.

Keywords: lexicography, explanatory dictionary, semantic evolution, neologism, archaism, terminology, dialecticism, literary norm, lexical unit.

Kirish. Bugungi kunda o‘zbek tilshunosligida leksikografiya sohasi sezilarli darajada taraqqiy etib, ilmiy va amaliy jihatdan yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu jarayon, avvalo, jamiyat hayotidagi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, fan va texnika rivoji hamda global kommunikatsiya bilan chambarchas bog‘liqdir. Natijada tilda yangi tushunchalar paydo bo‘lib, ularni izchil qayd etish va tizimlashtirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Zamonaviy lug‘atlar, xususan izohli lug‘atlar, til birliklarini nafaqat izohlash, balki ularni normativ jihatdan tartibga solish, qo‘llanish doirasini belgilash va kommunikativ samaradorligini ta‘minlash vazifasini ham bajaradi. Shu bois ular milliy til taraqqiyotining muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

Zamonaviy leksikografiyada elektron resurslar va onlayn lug‘atlar markaziy o‘rin tutadi. Elektron lug‘atlar tez yangilanishi, qidiruv qulayligi va interaktivligi bilan ajralib turadi. Bu foydalanuvchilar uchun samarali vosita hisoblanadi. Shu bilan birga izohli lug‘atlar, sinonimlar va iboralar lug‘atlari tilni boyitishda, nutq madaniyatini oshirishda va ilmiy tadqiqotlarda keng qo‘llanilmoqda. Bu jarayonlarning barchasi nafaqat ilmiy

ahamiyatga ega, balki davlat tilining qo'llanish doirasi kengayishiga, jamiyatning barcha sohalarida ona tili mavqeyini oshirishga imkon yaratadi.

Adabiyotlar tahlili. Tilshunoslikda lug'atlar ko'pincha til boyligini o'zida aks ettiruvchi va saqlovchi muhim manba sifatida talqin etiladi. "Muayyan davr so'zlarini surati, siyrati va butun sinoati bilan salomat saqlaydigan sandiq, albatta, lug'atlar ekanligini isbotlashning keragi yo'q" [1, 27]. Darhaqiqat, lug'atlar muayyan davrning nafaqat leksik tarkibini, balki uning ijtimoiy-madaniy qiyofasini ham aks ettiradi. Zamon va makon sarhadlarida bu dur-u javohirlarga boy "sandiq"ning qimmatini oshsa oshadiki, biroq zavol topmaydi.

Taniqli tilshunos N.Mahmudov "O'zbek tilining izohli lug'ati"ni tilimizning leksik boyligini namoyon etuvchi fundamental manba sifatida baholab, uning til taraqqiyotidagi o'rnini alohida e'tirof etadi: "Aytish mumkinki, mazkur lug'at o'zbek tilshunosligidagi, xususan, o'zbek lug'atchiligidagi o'ziga xos bir taraqqiyot bosqichini tayin etadigan, tilimizning so'z boyligini ko'z-ko'z qiladigan mo'tabar manbadir..." [1, 28).

Qayd etish kerakki, zamonaviy leksikografiyada lug'at maqolalarini boyitish, yangi so'zlarni kiritish, eskirgan birliklarni qayta tiklash va terminologik qatlamni tizimlashtirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Xalqaro leksikografik tajribada ham izohli lug'atlar tilni standartlashtirish va normativ me'yorlarni shakllantirishning asosiy vositasi sifatida tan olinadi. Shu jihatdan o'zbek leksikografiyasi ham global ilmiy tendensiyalar bilan hamohang rivojlanmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Ma'lumki, davr o'tishi bilan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar dastlab tilning leksikologiya bo'limiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Natijada ayrim so'zlarning eskilik bo'yog'i yangilanishi yoki aksincha bo'lishi, ba'zi so'zlar esa yangi ma'no kasb etishi kuzatiladi. Shularni inobatga olib lotin alifbosida nashr qilingan olti jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati"da [2] ushbu hodisalarni aks ettirish asosiy maqsad hisoblandi.

Tahlillar va natijalar. Yangi nashrda ayrim so'zlarning izohlari zamonaviy ehtiyojlardan kelib chiqib kengaytirilganini kuzatish mumkin. Bu holat lug'at tuzishda davr bilan bog'liqlik tamoyili ustuvor ekanini tasdiqlaydi. Masalan, *elak* so'zining izohiga yangi material turlari (metall, plastmassa) qo'shilishi real hayotdagi o'zgarishlarning lug'atda aks etganini ko'rsatadi. Oldingi nashrlarda *elak* so'zi uchun berilgan quyidagi lug'at maqola muayyan kengaytirilgan izohni talab qilar edi. "Un elash uchun ishlatiladigan, to'r qoplangan yog'och gardishdan iborat uy-ro'zg'or asbobi". [3, 29] Mazkur izoh yangi nusxada quyidagicha to'ldirildi:

ELAK Un elash uchun ishlatiladigan, to'r qoplangan yog'och, metall yoki plastmassa gardishdan iborat uy-ro'zg'or asbobi. Sim elak. Qalin elak. Elakka kirgan xotinning ellik og'iz gapi bor. Maqol. — *Ziyodaxon... elakdagi kepakni og'zi tor xaltachaga ehtiyot bilan soldi.* A.Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari. [4, 24]

Ko'rinadiki, yangi tahrirda *elak* so'zining leksikografik izohi kengaytirilgan. Mazkur asbobning gardishi bugungi kunda nafaqat, yog'och, balki metall va plastmassadan

yasalishi barchaga ma'lum. Tahrirda shu xususiyatlar ham qamrab olindi.

Tilimizdagi soʻzlar xalqimizning buguni, kelajagi bilan birga uning oʻtmishi haqida ham soʻzlaydi. Shu sababli lotin yozuvida nashr qilingan lugʻatni eskirgan soʻzlar bilan ham toʻldirishga alohida ahamiyat qaratildi. Bu esa til tarixini saqlash va madaniy merosni davom ettirish nuqtayi nazaridan muhimdir. Masalan, tarixiy qatlamga oid ayrim birliklarning lugʻatga qayta kiritilishi tilning uzviy rivojlanishini koʻrsatadi. Zero, “Eskirgan soʻzlarni tiklash tilimizning ming yillik boy zaxiralaridagi muayyan qismlarni harakatga keltirish, ishga solish demakdir”. [5, 30]. Shu maʼnoda yangi tahrirda bir qancha eskirgan soʻzlar tiklanib, ularning izohi keltirildi va illyustrativ misollar bilan dalillanadi. Lugʻat tamoyiliga koʻra bunday soʻzlar eskirgan soʻz tushunchasiga ishora qiluvchi – *esk.* izohi (pometasi) bilan berildi. Masalan:

ICHKILAR *esk.* Saroydagi ichki yumushlarni bajaruvchi maxsus beklar. *Shahzodalar va beklar va saroy ichkilari va boshqalar koʻz tutar edilarki, Iroq viloyati fath etilsa nafaqat xizmatkorlik, balki otangizga tobeligingizni yanada ulugʻroq qilar edingiz.* Isajon Sulton. Alisher Navoiy.

Yoki: **EKMAK** *esk.* Non. *Ochning koʻzi ekmakda, toʻqning koʻzi hikmatda.* Maqol.

Til oʻz zaxirasini xuddi tarozi pallasidek muvozanatda olib boradi. Leksikadagi ayrim soʻzlarning isteʼmoldan chiqishi ularning oʻrnini toʻldirib borish ehtiyojini tugʻdiradi. Shularni inobatga olib, lugʻat tarkibini yangi soʻzlar bilan boyitish asosiy maqsadlardan biridir. Bunda tilning ichki imkoniyati asosida yangi soʻzlarni hosil qilishga ham diqqat qilindi. Masalan:

EHTIYOJMAND Biror narsaga zaruriyati, muhtojligi boʻlgan; moddiy jihatdan nochor, moddiy koʻmakka muhtoj. *Ehtiyojmand oila. — Ehtiyojmand oilalarni qoʻllab-quvvatlash mexanizmini yanada takomillashtirish masalalari muhokama qilindi.* Gazetadan.

Maʼlumki, bugungi kunda globallashuv davrida fan va texnika taraqqiyoti tufayli juda koʻplab yangi tushunchalar kirib kelmoqda. Odatda yangi tushunchalar oʻz nomlari, yaʼni tegishli terminlar bilan kirib keladi. Shu sabab turi sohalarda qoʻllanayotgan bu kabi oʻzlashma terminlar va ular tarkibidagi xalqaro teminelementlar ham lugʻatlarimizdan joy olishi tabiiy. Bunda, albatta, muayyan terminning keng doirada qoʻllanayotgani eʼtiborga olinadi. Bu yondashuv ilmiy terminologiyani tartibga solish va izchil rivojlantirishga xizmat qiladi. Shularni inobatga olib, terminelementlar asosida hosil qilingan bir qator yangi soʻzlar ham lotin yozuviga asoslangan “Oʻzbek tilining izohli lugʻatiga” kiritildi. Yaʼni muayyan terminelement asosida bir qancha u bilan bogʻliq yangi soʻzlar va ularning izohi, illyustrativ misollar lugʻatdan oʻrin oldi. Bunda, avvalo, terminelement izohi berildi. Masalan:

ETNO- [*yun.* ethnos – qabila, elat, xalq] Oʻzlashma qoʻshma soʻzlarning birinchi tarkibiy qismi boʻlib, elat, xalq va ularga aloqador degan maʼnolarni anglatadi: *etnograf, etnonim, etnogenez.*

Terminelement asosida hosil bo'lgan so'zlarda esa bu qism qayta izohlanmaydi. Jumladan, etno- terminelementi yordamida hosil bo'lgan etnobotanika, etnolingvistika, etnomadaniyat, etnomusiqqa kabi so'zlar bosh so'z sifatida kiritildi. Etnomusiqqa so'zi va uning izohi quyidagicha berildi: ETNOMUSIQA [etno.. + musiqqa] Muayyan xalqning musiqalari haqidagi bilimlarini to'plash va sistemalashtirish bilan shug'ullanadigan fan.

Bundan tashqari hozirgi kunda har kuni ko'plab yangi so'zlar, tushunchalar qarshimizga chiqadi. Ularning yangi tahrirdagi izohli lug'atga kiritilishi ham ma'lum tamoyillarga asoslandi. Ularning barchasini ham izohli lug'atga kiritish to'g'ri emas. Bunda lug'atga kiritiladigan boshqa tilga mansub so'zlarning tilda yashab keta olish jihatlari inobatga olinsa, ichki manba asosida hosil qilingan yangi so'zlarning o'zbek tilining qonun-qoidalariga mos yasalganiga diqqat qilinadi. Masalan, quyidagi so'z bugun keng qo'llanilayotgani sababli lug'atdan o'rin oldi: INJINIRING Tijorat ko'rinishida har tomonlama maslahatlarini beruvchi mustaqil faoliyat doirasi. *Injiniring firmalari. Injiniring korxonasi. — Mazkur o'quv muassasasi Toshkent shahridagi Inha universiteti zamonaviy o'quv dasturlari asosida kompyuter hamda dasturiy injiniring bo'yicha mutaxassislar tayyorlashga kirishdi. Gazetadan.*

Xalqning boy xazinasini sanalgan shevaga oid so'zlarni lug'at tarkibiga kiritishda mazkur so'zning bir necha shevada qo'llanishi hamda badiiy asarlar tarkibida uchrashi tamoyiliga ko'ra foydalanildi. Masalan:

IJKILAMOQ *shv.* Ezmalanmoq. *Himmat uning fikrini uqqanday, "Ustani ishdan qo'yyapsan, hozir otam kelib qoladi" deya, go'yo opasiga tanbeh bermoqchi bo'lar, ammo Xongul ukasining e'tirozi, ogohlantirishlariga qo'l siltar va labini burib, "Nima, bilгим kelyapti-da" deb, yana Beknazarga ijkilab savol yog'dirishda davom etardi.* Q.Kenja, Palaxmon toshlari.

Shuningdek, lug'at tarkibida shunday leksemalar ham borki, ular asosida bi necha yangi leksemalar hosil qilish mumkin.

Masalan, o'r so'zining ikkinchi shakldoshi sifatida berilgan o'jar, johil kabi ma'nolari asosida yasalgan o'rlik, o'rlik etmoq (qilmoq) kabi so'zlar lug'atdan o'rin olmagan. Mazkur so'zlar folklor matnlarida, shuningdek, Buxoro viloyatining o'g'uz lahjalarida uchraydi. Jumladan, o'rlik so'zi "Alpomish" dostoni matnida ham kuzatildi: *Barchinoy, qilgin ixtiyor, seni bu o'rlicing bekor. "Alpomish".* Demak, illyustrativ misollari mavjud bo'lgan mazkur leksemalar ham lug'atga kiritilsa, lug'at boyishi bilan birga, so'zlarning ichki imkoniyatlar asosida yasaliş xususiyatlari ham aks etadi.

Xulosa. Umuman, olti jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati" zamonaviy o'zbek leksikografiyasining muhim yutug'i hisoblanadi. U tilning hozirgi holatini aks ettirish bilan birga, uning tarixiy ildizlari, shevaga oid so'zlarni ham qamrab olgan. Mazkur lug'at leksik tizimni tartibga solishi, yangi va eskirgan qatlamlar o'rtasida muvozanatni ta'minlashi, terminologik tizimni boyitishi, davlat tilining nufuzini oshirishga xizmat

qilishi bilan ahamiyatli hisoblanadi. Kelgusida lugʻatni yanada boyitish oʻzbek leksikografiyasining ustuvor vazifalaridan biri boʻlib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Маҳмудов Н. Тилимизнинг тилла сандиғи. – Тошкент, 2012. – 152 б.
2. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. Olti jildli. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”. 2008. – 592 б.
4. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. Ikkinchi jild. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 1036 b.
5. Мадвалиев А., Маҳкамов Н. Мираҳмедова З., Саиднўмонов А. Халқаро терминэлементларнинг изоҳли-иллюстратив луғати. – Тошкент: Донишманд зиёси, 2020. – 280 б.

